Akademik Shuhrat Egamberdiyev Andijonda yoshlar bilan uchrashdi

Shu yilning 18-aprelida akademik Sh.A.Egamberdiyev Andijon viloyati Marhamat tumani iqtidorli yoshlari va maktab direktorlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosarlari hamda targ’ibotchilari bilan uchrashdi. Uchrashuv mahalliy tadbirkorlar tomonidan Marhamat shahrida barpo etilgan hashamatli kutubxonada tashkil etildi.

Uchrashuvda akademik mamlakatimizda ilm-fan holati va istiqbollari to’g’risida ma’ruza-taqdimot qildi. O’zbekiston Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyevning ilm-fan rivojiga va olimlarimizga alohida e’tibor ko’rsatayotganligini alohida ta’kidlab o’tdi.

Ma’ruza-taqdimotda kosmik soha va astronomiya fanining istiqbollari, xususan Maydanak observatoriyasi hamda Suffa yassitog’ida barpo etilajak RT-70 radioobservatoriyalari haqida ma’lumot berildi.

Uchrashuv so’ngida akademik Sh.Egamberdiyev yoshlarni qiziqtirgan ko’plab savollarga javob berdi.